



**REASONS FOR THE DECLINE OF INTEREST IN NATIONAL
MUSICAL INSTRUMENTS AMONG YOUTH AND WAYS TO
OVERCOME THEM**

Nabiyeva Farog'atxon

3rd-year student of the Professional Education program, Department of Instrument
Performance, Kokand State University

Abstract: This article discusses the reasons for the decline of interest in national musical instruments among young people and finding solutions to the problem by overcoming them through modern methods.

Keywords: national musical instruments, youth, mass culture, national heritage, musical taste, innovative education, promotion, contemporary music, national values, instrument performance

**YOSHLAR ORASIDA MILLIY CHOLG'ULARGA QIZIQISH
PASAYISHINING SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH
YO'LLARI**

Qo'qon davlat universiteti "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasida Professional ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi Nabiyeva Farog'atxon

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar orasida milliy cholg'ularga qiziqish pasayganligining sabablari va ularni zamonaviy usullar orqali bartaraf etib masalaga yechim topish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: milliy cholg'ular, yoshlar, ommaviy madaniyati, milliy meros, musiqiy did, innovatsion ta'lim, targ'ibot zamonaviy musiqa, milliy qadriyatlar, cholg'u ijrochiligi

Asrlar davomida avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz madaniyatimiz jamiyatimizning, xalqimizning o'zligini, buyukligini belgilab beradi. Shu o'rinda bizning madaniyatimizning asosini tashkil etuvchi milliy cholg'ularimiz o'zligimizni aks ettiruvchi milliy san'at vositalarimizdan biri hisoblanadi. Bugungi





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

kunda globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bir davrda yoshlarning musiqiy didi ham keskin o'zgarib bormoqda. Zamonaviy ommaviy madaniyat, internet tarmoqlarining ta'siri natijasida ayrim yoshlarda milliy musiqaga va milliy cholg'ularga bo'lgan qiziqish pasayishi ortib bormoqda. Dutor, rubob, g'ijjak, nay, chang, kabi cholg'ular xalqimizning ruhiy dunyosi va estetik qarashlarini ifodalab kelgan. Yoshlarning milliy cholg'ularga bo'lgan qiziqishining pasayishiga turli ijtimoiy va madaniy omillar sabab bo'lmoqda. Shu o'rinda zamonaviy musiqaga haddan tashqari qiziqish, yevropa cholg'ulariga intilish, milliy musiqamizning yetarli darajada targ'ib qilinmasligi, ma'lum bir ma'noda milliy cholg'ularning mukammal emasligi va cholg'u ohanglarini tanimaslik muammoning asosiy sabablaridan biri bo'lmoqda. Yosh avlodning milliy cholg'ular eskicha san'at turi degan qarashlari ham milliy cholg'uga bo'lgan qiziqishning pasayishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur maqolada yoshlar orasida milliy cholg'ularga qiziqish pasayishining asosiy sabablari tahlil qilinadi hamda ushbu muammoni bartaraf etishning samarali yechimlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, milliy musiqa madaniyatini yoshlar orasida keng targ'ib qilishning zamonaviy usullari ko'rib chiqiladi.

Yoshlar orasida milliy cholg'ularga qiziqishning pasayishi bugungi globallashuv va raqamli madaniyat davrida dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ushbu holatning yuzaga kelishiga birinchi navbatda ommaviy madaniyatning kuchli ta'siri sabab bo'lmoqda. Qadimiy tariximizdan ma'lumki o'zbek xonadonlarining har birida musiqiy burchak bo'lgan va eng kamida ushbu burchakda ikki dona milliy cholg'u turgan. Ular eng mukammal yaratilgan doira va dutor cholg'ulari edi. Xattoki dutorning dastasiga bog'langan popuklari shu xonadonning nechta farzand bor ekanligidan daolat bergan. Bu o'z navbatida qayta ishlangan milliy cholg'ularimizning yetarlicha ovoz imkoniyatiga ega emasligi va xalq ularni hech birini tanimasligi bu masalaning yana bir dolzarb muammolaridan bo'lib qolmoqda. Masalan qayta ishlangan cholg'ulardan dutor bas, prima rubob avg'on rubob dutor alt, dutor prima kabi cholg'ularni xalq umuman





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

tanimaydi. Buning sababi cholg'ularning ijro imkoniyatlarining kamligi balki, professional ijrochilarning yetishmasligi hamda cholg'ularni yetarlicha targ'ib qilinmasligi va xalqchilikdan yiroqlashishdir. Bu nafaqat yoshlarning milliy cholg'ularga bo'lgan qiziqishi pasayishiga balki, xalqimizning milliy merosi qadriyatlarining yo'qolib borishiga ham ma'lum bir ma'noda sabab bo'lmoqda.

Psixolog olimlarning fikriga ko'ra, yoshlar ko'pincha jamiyatda ommalashgan va tez e'tibor qozonadigan faoliyat turlariga moyillik bildiradilar. Natijada ular uzoq mehnat va sabr talab qiladigan milliy cholg'u ijrochiligidan ko'ra qisqa vaqt ichida mashhurlikka olib keluvchi zamonaviy trend musiqalarga ko'proq qiziqish bildirmoqdalar. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda sodda va tez tarqaladigan musiqiy kontentlarning ko'payishi yoshlarning musiqiy didi va estetik qarashlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qiziqishning pasayishiga ta'sir etayotgan yana bir muhim omil — milliy cholg'ularning zamonaviy axborot makonida yetarlicha targ'ib qilinmayotganidir. Ko'plab yoshlar milliy cholg'ularni faqat an'anaviy tadbirlar bilan bog'laydi va ularni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtira olmaydi. Bu esa milliy musiqa va yoshlar dunyoqarashi o'rtasida ma'lum masofa yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, ayrim ta'lim muassasalarida musiqa darslarining nazariy yo'nalishda olib borilishi, amaliy va ijodiy mashg'ulotlarning kamligi ham o'quvchilarda ichki motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Mazkur muammoni bartaraf etishda, milliy cholg'ularni zamonaviy usullar orqali targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, milliy cholg'ular ishtirokidagi zamonaviy aranjirovkalar, kreativ videolar hamda ijtimoiy tarmoqlar uchun sifatli musiqiy loyihalar yaratish yoshlarning qiziqishini oshirishi mumkin. Psixologik jihatdan yoshlar o'zlariga yaqin va zamonaviy ko'rinadigan faoliyatga tezroq qiziqish bildiradilar. Shu sababli milliy musiqani zamonaviy media bilan uyg'unlashtirish samarali natija beradi. Shu o'rinda musiqa ta'limida ijodiy erkinlikka asoslangan metodlarni joriy etish zarur. O'quvchilarning mustaqil ijro, improvizatsiya va sahna chiqishlarida faol qatnashishi ularda o'ziga





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

bo'lgan ishonchni oshiradi hamda milliy cholg'ularga nisbatan emotsional yaqinlikni shakllantiradi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, insonda biror faoliyatga nisbatan barqaror qiziqish hosil bo'lishi uchun unda muvaffaqiyat hissi va ijobiy ruhiy kechinmalar paydo bo'lishi lozim. Shuningdek, oilaviy muhit va madaniy tarbiya ham muhim omillardan biridir. Agar bolalar yoshligidan milliy kuy va cholg'ular muhitida tarbiyalansa, ularda milliy san'atga nisbatan tabiiy qiziqish shakllanadi. Demak, yoshlar orasida milliy cholg'ularga qiziqishni oshirish faqat ta'lim tizimining emas, balki jamiyat, oila va ommaviy axborot vositalarining hamkorlikdagi vazifasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar orasida milliy cholg'ularga qiziqishning pasayishi bir qator ijtimoiy, madaniy va ijodiy omillar bilan bog'liq. Xususan, ayrim qayta ishlangan cholg'ularning ijro imkoniyatlari mukammal darajada rivojlanmagani, professional ijrochilar sonining kamligi hamda milliy cholg'ularning zamonaviy axborot makonida yetarlicha targ'ib qilinmayotgani ushbu muammoning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Natijada ko'plab yoshlar milliy cholg'ularning imkoniyatlari, ohang boyligi va estetik qiymati haqida yetarli tasavvurga ega emaslar. Ba'zi hollarda esa milliy musiqa xalqchilik va tabiiylikdan uzoqlashib, yoshlar ruhiyatiga yaqin bo'lmagan shaklda namoyon etilmoqda. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun milliy cholg'ularni zamonaviy texnologiyalar va kreativ yondashuvlar asosida targ'ib qilish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar, sifatli videokontentlar va zamonaviy aranjirovkalar orqali milliy cholg'ularni yoshlar auditoriyasiga yaqinlashtirish mumkin. Shu bilan birga, professional ijrochilarni qo'llab-quvvatlash, yosh iste'dodlarni rag'batlantirish hamda cholg'ularning texnik va akustik imkoniyatlarini yanada takomillashtirish zarur. Shuningdek, musiqa ta'limida amaliy ijro va ijodiy erkinlikka ko'proq e'tibor qaratilishi yoshlarning milliy san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Milliy cholg'ularni ommalashtirish nafaqat musiqa madaniyatini rivojlantirishga, balki yosh avlodning milliy qadriyatlar va ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalanishiga ham xizmat qiladi.





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jo'rayev A. O'zbek musiqa merosi va ta'lim. Toshkent. Fan 2019.
2. Abdullaev F. Musiqa pedagogikasi asoslari. Toshkent O'gituvchi 2017.
3. Nurmatov O. Milliy cholg'u ijrochiligi tarixi. Samarqand Zarafshon 2020.
4. UNESCO. Intangible Cultural Heritage: Traditional Music of Central Asia 2018.
5. Qodirova S. Musiqa madaniyati darslarida innovatsion metodlar. Toshkent 2021.
6. Jurayev, I. (2025). Vocal pedagogy in the academy integrating Uzbek traditional practices. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(7), 30-35.

